

O‘ZBEK MADANIYATI VA SAN’ATIDA KINO HAMDA KINO OPERATORLIK SOHASINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Umid Malikov

Sahnalashtiruvchi operator

Toshkent shahridagi S.A.Gerasimov VGIK o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola o‘zbek madaniyati va san’atida kino hamda kino operatorlik sohasining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari hamda o‘zbek kinooperatorlik san’atining tarixi, o‘zbek kinematografiyasida yangi yo‘nalish va uslublarning paydo bo‘lishi kinostudiyada Sh.Abbasov, E.Ishmuhamedov, A.Xamrayev, operatorlar X.Fayziyev, D.Fatxulin, rassomlar E.Kalantarov, E.Raximboyev kabi yosh ijodkorlarning nomlari bilan chambarchas bog‘liqligi xususida fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan. Shu bilan birga, maqolada o‘zbek kinooperatorlik san’ati o‘zbek kinosi rivoji uchun ahamiyati to‘g‘risida ilmiy asoslangan fikrlar bildirilib o‘zgarishlar va ularning mohiyati haqida ham so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: operator, yorug‘lik, kompozitsiya, simmetriya, kino, kinooperatorlik maktabi, ijodkor, badiiylik, tasviriy yechim

ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ КИНО И КИНООПЕРАТОРСКОЙ СФЕРЫ В УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЕ И ИСКУССТВЕ

Умид Маликов

Оператор постановщик киностудии Узбекфильм,

преподаватель Ташкентского филиала Всероссийского

Государственного Института Кинематографии им С.А.Герасимова

Аннотация: Данная научная статья посвящена этапам становления и тенденциям развития кинематографии и кинематографии в узбекской культуре и искусстве, а также истории узбекского кинематографического

искусства, возникновению новых направлений и стилей в узбекской кинематографии на киностудии. Высказывались мнения о тесной связи с именами молодых художников, таких как Ш.Аббасов, Э.Ишмухамедов, А.Хамраев, операторов Х.Файзиева, Д.Фатхулина, художников Э.Калантарова, Э.Рахимбоева. При этом в статье приводятся научно обоснованные мнения о значении узбекской кинематографии для развития узбекского кинематографа, рассказывается об изменениях и их сути.

Ключевые слова: оператор, свет, композиция, симметрия, фильм, школа кинематографии, творец, художественность, визуальное решение.

FORMATION STAGES AND DEVELOPMENT TENDENCIES OF CINEMA AND CINEMA OPERATOR FIELD IN UZBEK CULTURE AND ART

Umid Malikov

D.O.P. & MD of cinematography

Abstract: This scientific article is about the stages of formation and development trends of cinematography and cinematography in Uzbek culture and art, as well as the history of Uzbek cinematography art, the emergence of new directions and styles in Uzbek cinematography in the film studio Sh. Opinions were given about the close connection with the names of young artists such as Abbasov, E. Ishmuhamedov, A. Khamrayev, cameramen H. Fayziyev, D. Fatkhulin, artists E. Kalantarov, E. Rakhimboyev. At the same time, the article gives scientifically based opinions about the importance of Uzbek cinematography for the development of Uzbek cinema and talks about changes and their essence.

Key words: operator, light, composition, symmetry, film, school of cinematography, creator, artistry, visual solution

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim sharoitlarda jahon andozalariga mos ravishda kinematografiya sohasining innovatsion faoliyatining yutuqlaridan keng

foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning hamda mamlakatimizning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda. Chunki bugungi tezkor rivojlanish davrida jamiyat uchun faol fikrlovchi, innovatsion g'oyalarni yaratuvchi hamda ularni amaliyotda samarali qo'llovchi malakali mutaxassislar zarur. Bu esa o'z navbatida, ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni, o'qitishning zamonaviy interfaol va ijodiy uslublarini joriy etish va sohaga yo'naltirish orqali ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashuvchi innovatsion rahbar va pedagog kadrlarni zarurligini keltirib chiqaradi.

1991-yilda O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, atoqli kinooperator, professor A.Ismoilovning tashabbusi bilan sobiq A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomchilik institutida kino va televidenie uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi kinoteleoperatorlik bo'limi tashkil etildi va shu yildanoq ilk talabalarni o'z bag'riga oldi. 1997-yilda esa "Kinoteleoperatorlik mahorati" kafedrasida tashkil etildi. Bugungi kunda samarali ijod qilib kelayotgan ko'plab iste'dodli kinooperatorlar uning ilk qaldirg'ochlari bugungi kungacha 400 dan ortiq yuqori malakali kino va televideniya operatorlarini yetkazib berdi.

"Kinoteleoperatorlik mahorati" kafedrasida o'zbek kinematografiyasida yetuk kinooperatorlardan Abduraxim Ismoilov, Xotam Fayziev, Hamidulla Hasanov, Marat Soliev, Turdi Nodirov, Umit Artikov, Xasan Fayzievlar ushbu kafedrada faoliyat yuritib o'z amaliy bilimlaridan foydalanib talabalarga dars berdilar. Ushbu ijodkorlar o'zbek kinooperatorlik san'atiga hamda O'zDSMI institutida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda munosib hissa qo'shgan va qo'shayotgan pedagoglardir.

50-yillarda "O'zbekfilm" studiyasi ijodiy jamoasi son jihatdan ko'plab filmlarni yarata boshladilar. Studiyaga yangi ijodiy shahslar kirib keldi. Ular o'zlari bilan yangi mavzularni, yangi yechimlarni, yangicha izlanishlarni, hayot va san'atga bo'lgan yangicha munosabatni olib keldilar. 1956-1959-yillar ichida "O'zbekfilm" kinostudiyasi tomonidan turli janrlar va mavzularni qamrab olgan o'ndan ortiq badiiy filmlar yaratildi.[1;112] Rejissyor Z.Sobitovning "Farzandlar olg'a boradilar" ("Sbinovya idut dalshe", ssenariy mualliflari Yu.German va G.Rest).

Filmda o'zbek xalqining Mirzacho'lni o'zlashtirish, suvsiz yotgan cho'lni gulistonga aylantirishdagi mardonavor kurashi, bunda o'zbek xalqining g'alabasi haqida hikoya qilingan. Taniqli kinorejissyor K.Yormatov tarixiy mavzudagi eng yaxshi film - "Ibn Sino" ("Avitsenna") filmini suratga oldi. Mualliflar V.Vitkovich va S.Ulug'zodalar ssenariysi asosida yaratilgan bu kinoasar o'rta asrlarda yashab o'tgan buyuk olim, faylasuf va tabobat ilmining asoschisi sifatida barchaga ma'lum bo'lgan Abu Ali ibn Sino tavallud topganining 1000 yilligi munosabati bilan ekran yuzini ko'rdi.

Qayd etilgan filmlar Respublikaning madaniy hayotida muxim voqea bo'lganligini e'tirof etish lozim. 50-yilning ikkinchi yarimidan ekranlarda namoyish etilgan filmlarga e'tiborimizni qaratsak, shuni alohida e'tirof etishimiz mumkinki, o'zbek kinematografistlari o'z ijodlarida yangi va zamonaviy mavzularga qo'l urishga, zamon bilan hamnafas bo'lishga intilganlar.[2;38] Ekranlarda birin-ketin o'ndan ortiq zamonaviy mavzularda yaratilgan badiiy filmlar ekranlarga chiqdi. Bir necha yillik tanafusdan so'ng rejissyor Y.Agzamov o'zining "Gulbahor" (ssenariy mualliflari M.Yelenin va G.Maryanovskiylar), "Orol baliqchilari" ("Rbbaki Arala", ssenariy mualliflari M.Melkumov va A.Japanovlar), "Maftuningman" ("Ocharovan toboy", ssenariy mualliflari T.To'la va M.Melkumov) filmini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Rejissyor Z.Sobitov ham shu davrda "Stadionda uchrashamiz" ("Vstretimsya

na stadione", ssenariy muallifi Yu.Kalabin) nomli komediya yaratadi. Keyinchalik detektiv janriga mansub "Sahrodagi voqea" ("Sluchay v pustbine", 1959 y.) filmini suratga oldi. Rejissyorlar K.Yormatov va L.Fayzievlar ijodiy hamkorlikda "Atirgullar gullaganda" ("Kogda svetut rozi", ssenariy muallifi K.Fayzullin) hamda "Ikkinchi gullash" ("Vtoroe svetenie", ssenariy muallifi V.Kreps) filmlarini yaratdilar.[3;34]

Kinostudiyaning o'sha davrdagi imkoniyatlaridan kelib chiqib qarasaq qisqa muddatda son jihatdan bu qadar ko'p filmlarning yaratilishi o'zbek kino san'ati uchun xech mubolag'asiz katta yutuq edi. Albatta filmlardagi dramaturgiyaning zaifligi, ziddiyatlarning sayozligi va maromiga yetmaganligi, ba'zi obrazlarning juda jo'nligi va siyqasi chiqqanligi yaqqol ko'zga tashlanib qolgan. Nazarimizda filmlarda fikrlar teranligi, filmlardan olinadigan xulosalarning keng ko'lamliligi yetishmas edi.

Ammo, mavjud kamchiliklariga qaramasdan, bu filmlar o'zida ezgulik g'oyalarini mujassam qilgan, o'z davrining zamonaviy talablariga javob bera olgan. Bu esa O'zbekiston kino san'atida yangidan-yangi zamonaviy mavzularni yoritgan filmlar yaratishda muhim omil edi.

Respublika kino sanoatidagi keskin o'sish, bu o'sishga turtki bo'lgan bir nechta qiziqarli va o'ziga xos ijodiy yangiliklar - o'zbek milliy kino san'atining o'sha davrdagi rivojlanish bosqichiga xos bo'lgan xususiyatdir.

1960-yildan boshlab o'zbek kinematografiyasida rivojlanish va o'sish davri boshlandi. Respublika kinematografiyasiga yosh rejissyorlar, ssenariy mualliflari, kinooperatorlar, rassomlar guruhi kelib qo'shildi. Ishlab chiqarishning hajmi ortdi. Filmlarning mavzu va janrlar chegaralari kengayib bordi va natijada o'zbek kino ijodkorlarining faoliyati ham rivojlanib bordi.[4;78] Ekranlarga biri-biridan qiziqarli yirik filmlar ekranlarga chiqq boshladi. "Mahallada duv-duv gap" ("Ob etom govorit vsya maxallya"), "Sen yetim emassan" ("T i ne sirota"), "Nafosat" ("Nejnost"),

"Ulug'bek yulduzi" ("Zvezda Ulugbeka") va bir qator e'tiborga molik hujjatli filmlar yaratildi. Kino ustalari 60-yillarning oxirlari va 70-yillarga kelib o'z ijodlarida g'oyaviy-badiiy yetuklikka, yangi ijodiy pog'onalariga ko'tarilganlarini namoyish etdilar.[5;89]

Ulkan mahorat va tajribaga ega rejissyorlar K.Yormatov, Yu.Agzamov, Z.Sobitov, L.Fayziev, X.Axmar hamda Sh.Abbosov, A.Hamraev, R.Botirov, U.Nazaraov, E.Ishmuhammedov, A.Qobilov, A.Xachaturov, Q.Kamalova, D.Salimov kabi bir qator ilg'or fikrlovchi va izlanuvchi yoshlar "Toshkent non shahri" ("Tashkent gorod xlebniy"), "Abu Rayhon Beruniy" ("Abu Reyxan Beruni"), "O'tkan kunlar" ("Minuvshie dni"), "Favqulotda komissar" ("Chrezvichayniy komissar"), "Seni kutamiz yigit" ("Jdyom tebya, paren"), "Integral", "Sevishganlar" ("Vlyublennie"), "Uchrashuvlar va vidolashuvlar" ("Vstrechi i rasstavaniya"), "Farxodning jasorati" ("Podvig Farxada"), Inson qushlar ortidan boradi" ("Chelovek uxodit za ptitsami"), "Achchiq meva" ("Gorkaya yagoda"), "Ikki askar haqida qissa" ("Povest o dvux soldatax"), "Qo'qon voqeasi" ("Eto bilo v Kokande") televizion badiiy filmi, "Shum bola" ("Ozornik") va boshqa talaygina mashhur va yetuk kinoasarlarni yaratishga muvaffaq bo'ldilar.[6;54]

Milliy kino san'atini yuksaltirish uchun avvalo ko'plab, filmlar yaratilmog'I zarur, ular har jihatidan puxta filmlar yaratish, bu soha rivoji uchun kerakli chora - tadbirlar ustida ish olib borish muxim va ustuvor vazifalardan bo'lib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuslari bilan Milliy kinematografiya sohasiga qaratilgan e'tibordan so'ng bugun tubdan o'zgarishlar davriga asos solindi.

Hozirgi kunda kinoning ijtimoiy nufuzi oshdi, mavzu doirasi kengaydi, badiiy filmlar, hujjatli filmlar, ilmiy-ommabop filmlarning yaratilishi shular jumlasidandir.

Kinematografiyada sezilarli izlanishlar olib borilayotgan bo'lsa-da, mukammal va salmoqli kartinalar suratga olish, tomoshabin badiiy va estetik didini o'stiruvchi, ruhiy olamni, botniy kechinmalarini taftish qiladigan, tom ma'nodagi, yaxshi kino mahsulotlariga ehtiyoj katta. Kinoning eng og'riqli nuqtalaridan biri - ssenariy va rejissura masalalarini o'rganish badiiy yaxlitlik kesimida tadqiq etishi hamda unda til masalasiga to'xtalish dolzarb sanaladi. Milliy filmlar badiiy yaxlitligini ta'minlash deganda avvalo, rejissyor va ssenarinas hamfikirligi, ijodiy asaosiy nuqtalaridan biriga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abul-Kasimova X. Кино и художественная культура Узбекистана. - Т.: "Fan",-2011.
2. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslar i/ X. Abulqosimova; mas'ul muharrir H. Ikromov; O'zbekiston Davlat san'at instituti. - Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. - 100 b.
3. Akbarov H. Adabiyot va kino. - Т.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, -2014 y.
4. Akbarov H. Sehrli yog'du. Yillar va filmlar, yetuklik bo'sag'asida, ekran va ikki muammo. - Т.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977. - 176 b.
5. Aliev M. Xalq sevgan san'at. - Т.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2013. 134 b.
6. Aliev M. Kino asoslari: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi madaniy-ma'rifiy ixtisosdan bilim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma 2-qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr. - Т.: O'qituvchi, 2013. - 160 b.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/filmlarda-tasviriy-yechim-va-sifat-maxalliy-kinooperatorlarning-yetishib-chiqishi>